

# O‘ZBEK TILI

## 10

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun

O‘QITUVCHILAR UCHUN  
METODIK QO‘LLANMA

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi  
vazirligi nashrga tavsiya etgan*

*Yangi nashr*

Toshkent – 2022

UO'K 811.512.133(072)  
KBK 81.20'zb  
O'-16

***Mualliflar:***

Dilafuz Xidoyatova  
Nargiza Yuldasheva  
Nodira Usmonova  
Namoz Rasulov  
Yulduz Xasanova  
Nurjahon Abdullayeva

***Taqrizchilar:***

**S. Muhamedova** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**Z. Xudoyberganova** – Bartin universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**N. Alavutdinova** – O'zMU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**R. Ismoilov** – Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi 2-IDUMning oliy toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi.

O'zbek tili [Matn]: 10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / Dilafuz Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 196 b.

ISBN 978-9943-8829-0-4

UO'K 811.512.133(072)  
KBK 81.20'zb

# MUNDARIJA

## I CHORAK. TURIZM

### 2000 YILLIK TARIX

Asrlar sadosi.....	5
Renessans.....	7
Sharq bozorlari .....	9
Sharq mutafakkirlari.....	12
Donolar bisotidan.....	15
Samoga yo'l.....	17
Til tarixidan .....	19
Bu nimani anglatadi? .....	21
Nechta do'stim bo'lishi kerak? .....	24

### QADIMIY ME'MORIY OBIDALAR

Olam mo'jizalari .....	29
Muzeylar .....	30
Yurtimiz muzeylari.....	33
Ko'hna va navqiron shaharlar .....	35
Tarixiy kutubxona .....	37
Kitob va mutolaa .....	39

### AFSONALAR

To'maris .....	41
Shiroq .....	43
Baobab afsonasi.....	45
Rivoyatlar.....	46
Savdo yo'llari .....	48
Afsonaviy qush .....	50
Bermuda uchburchagi .....	52

## II CHORAK. JISM VA RUHIYAT

### TEMPERAMENT

Jism va ruh .....	54
Psixogigiyena.....	57
Mening temperamentim.....	59
Kamalak.....	63
Rang-barang olam.....	66
Ijtimoiy odoblar.....	69
Fazilat .....	71

### SHAXSIY GIGIYENA

Salomatlik va gigiyena.....	75
Sog'lom mahsulotlar .....	78
Talab va taklif.....	80
Mening kunim .....	82
Sanitariya.....	85
Tabobat.....	88
Parhez .....	90
"Avitsenna usuli" .....	93
Bu qiziq.....	96

### III CHORAK. O'ZBEKCHA

#### SHARQ TARONALARI

Xalq dostonlari .....	99
Baxshichilik .....	102
Sharq taronalari .....	105
Musiqa va men .....	108
Sato .....	111
O'zbekcha kuylayman.....	113
Adabiyot.....	115
Bizning kino .....	117
Teatr san'ati .....	120
Nabiramga xat .....	122

#### TOPIB GAPIR!

O'zbekcha o'zgacha .....	125
Qiziqarli lug'atlar .....	128
Idiomalar.....	131
Qiziq gaplar.....	132
Ibora.....	134
Jargonlar.....	136
Mening sarguzashtlarim.....	138
Do'stinga xat.....	140

#### SPORT — KECHA VA BUGUN

Sport – hayot, quvonch, sog'liq	
Antiq sport turlari.....	144
Zehn g'alabasi .....	146
Milliy kurash .....	148
Ko'pkari.....	150
Olimpiada.....	152
Paralimpiya o'yinlari.....	154

### IV CHORAK. DALIL VA ISBOT

#### BU – FAKTI!

G'aroyib fauna .....	156
H <sub>2</sub> O .....	159
Oliyjanob tadbirkor.....	161
Faktlar haqida faktlar .....	164
Muvaffaqiyatli biznes .....	166
Dunyoga tanilgan ishbitarmonlar .....	168
Zamon qahramonlari.....	171
Antiq mashg'ulotlar .....	173
O'zgaruvchan dunyo.....	175
Startup .....	177

#### INSON HUQUQLARI

Huquqni bilgan qoqilmas .....	180
Ombudsman .....	182
Kuch – adolatda.....	184
Mening huquqlarim .....	186
Qonunlar nima uchun kerak?.....	188
Men haqimda .....	189
Iste'molchi huquqi .....	191
Raqamlar .....	192
Turfa olam.....	194

# I CHORAK. TURIZM

## 2000 YILLIK TARIX

### ASRLAR SADOSI

**Maqsad:** mavzu doirasida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, audiomatn va faktologik matnlarni tinglab tushunish, o'qib, qayta so'zlay olish, savollarga to'liq javob bera olish.

**Refleksiya:** 2000 yillik tarix haqida savol-javob o'tkazing, mavzu yuzasidan suhbatlashing

#### Vazifalar:

1. Savol yuzasidan sinfda suhbat o'tkazing, o'quvchilarni mavzu doirasida ko'proq gapirtiring.

2. Berilgan matn asosida nomlarni toptiring.

Astronomik muassasa (2)

Bayt-ul-hikma (1)

Tibbiyot ensiklopediyasi (3)

Zardushtiylik (4)

3. Nuqtalar o'rniga tegishli ko'rsatkichlarni qo'ydirib, yozdiring.

1. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslar jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan .

2. "Tib qonunlari" dunyo tabobati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.

3. "Avesto" kitobida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash aks etgan.

### 2000 yillik tarix

MAVZU

#### Asrlar sadosi



1 O'qing.

O'zbekiston 2000 yil avval qanday bo'lgan deb o'ylaysiz?



2 O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

**Ma'mun akademiyasi** – IX asrning 1-yarmida xalifa Ma'mun ar-Rashid tomonidan Bag'odda tashkil etilgan ilmiy markaz. Dastlab "Bayt ul-hikma" deb atalgan. Rasadxonaga dastlab marvlik Yahyo ibn Mansur, keginchalik Muhammad al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Ma'mun akademiyasida turli maqsadlarda ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan.



"Avesto" – Jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi. U bir necha ming yil oldin yaratilgan. "Avesto" kitobi to'rt qismdan: "Yasna", "Yasht", "Visparad" va "Vendidad" dan iborat.

"**Tib qonunlari**" – Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asari. "Tib qonunlari" o'z davri tabobatining mufassal ensiklopediyasi bo'lib, unda inson salomatligiga oid masalalar to'la bayon etilgan. Ibn Sino tabobatni ilm darajasiga ko'tardi, uni yunon, rim, hind tabiblarining tajribalariga tayanib, "Tib qonunlari" da aks ettirdi.



**Ulug'bek rasadxonasi** – Samarqanddagi XV asr me'morchiligining nodir namunalaridan biri. U ko'pna astronomik kuzatuv muassasasi bo'lgan. Ulug'bek rasadxonasining arxeologik qo'lloqlari 1908-yilda Vasiliy Vyatkin ekspeditsiyasi tomonidan topilgan.

“Mufassal – to'liq, batafsil”

4. Alisher Navoiy ko'plab she'riy to'plamlar, nasriy asarlar hamda ilmiy risolalar muallifidir.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur boshqa mamlakatlarda yashagan bo'lsa ham, lekin o'z yurti haqida asarlar yozgan.

4. Nuqtalar o'rniga tegishli ko'rsatkichlarni qo'ydirib, yozdiring.

1. Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi va Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.

2. Men "Navoiy" romanini o'qimoqchiman, chunki bu roman asosida olingan filmni ko'rdim.

3. Men bugun do'stim bilan kutubxonaga bormoqchi edim, ammo do'stim kechikyapti.

4. Men kelajakda arxeolog bo'lmoqchiman, shuning uchun tarix fanini chuqurroq o'rgana boshladim.

5. Berilgan qo'shma gap qoliplaridan foydalangan holda o'quvchilar gaplarni mustaqil davom ettirishadi.

Masalan:

1. Shuni doimo yodingda tutki, *bilim muvaffaqiyat kalitidir.*
2. Shunga ishonamanki, u chempion bo'ladi.
3. Umidimiz shuki, u dunyo tanigan shifokor bo'lsa.
4. Shunday yashaylikki, barcha havas qilsin.
5. Shuni bilib oldimki, men hali ko'p o'qishim kerak.

**Mustaqil topshiriq.** Biror buyuk shaxs haqida (50–100 so'zdan foydalanib) ma'lumot yozib kelishsin hamda quyida keltirilgan zamonamiz qahramonlari bilan o'tmishdagi olimlarni bir-biriga taqqoslashsin.

O'tmish	Bugun
Ma'mun	Harvard
Ibn Sino	...
...	Ilon Mask

*Namuna. Astronomik muassasa (4)*

"Bayt ul-hikma" ( )  
Tibbiyot ensiklopediyasi ( )  
Zardushtiylik ( )



3 O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: va, haqida, kabi, lekin, hamda.

1. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy ... buyuk shaxslar jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan.
2. "Tib onunlari" dunyo tabobati ... ma'lumot beruvchi qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.
3. "Avesto" kitobida yaxshilik ... yomonlik o'rtasidagi kurash aks etgan.
4. Alisher Navoiy ko'plab she'riy to'plamlar, nasriy asarlar ... ilmiy risolalar muallifidir.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur boshqa mamlakatlarda yashagan bo'lsa ham, ... o'z yurti haqida asarlar yozgan.



4 O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: va, hamda, lekin, ammo, biroq, chunki, shuning uchun

*Namuna.* Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi. U Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi. Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi va Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.

1. Men "Navoiy" romanini o'qimoqchiman. Bu roman asosida olingan filmni ko'rdim.
2. Men bugun do'stim bilan kutubxonaga bormoqchi edim. Do'stim kechikyapti.
3. Men kelajakda arxeolog bo'lmoqchiman. Tarix fanini chuqurroq o'rgana boshladim.



5 O'ylang va toping. Yozing.

*Namuna.* Shuni doimo yodingda tutki, \_\_\_\_\_  
Shuni doimo yodingda tutki, bilim muvaffaqiyat kalitidir.

1. Shunga ishonamanki, \_\_\_\_\_.
2. Umidimiz shuki, \_\_\_\_\_.
3. Shunday yashaylikki, \_\_\_\_\_.
4. Shuni bilib oldimki, \_\_\_\_\_.

**Mustaqil topshiriq**

Biror buyuk shaxs haqida (50–100 so'zdan iborat) ma'lumot yozing.

O'tmish	Ma'mun	Ibn Sino	_____
Bugun	Harvard	_____	Ilon Mask

## RENESSANS

**Maqsad:** Mavzuga oid faktologik matnlarni o'qiganda, eshitganda undagi detallarni tushunish.

**Refleksiya:** "aktivator 3, 2,1" metodi orqali o'quvchilarning oldingi chorakda o'tilgan mavzular bo'yicha 3 ta yodda qolgan, 2 ta muhim bo'lgan, 1 ta hayotida qo'l keladigan ma'lumot savoliga og'zaki yoki yozma javob berishlarini ta'minlash.

### Vazifalar:

1. Berilgan matnni o'quvchilarga ikki marotaba yaxshilab o'qiting.
2. Berilgan savollarga yuqorida keltirilgan matn asosida o'quvchilardan javob oling va suhbatlashing.

*O'quvchilarga o'tgan zamon fe'llari haqida ma'lumot bering va tushuntiring.*

#### Diqqat qiling!

Men bor(moq) -dim.	Biz bir(moq) -dik. Siz bor(moq) -dingiz.
Sen bor(moq) -ding.	Ular bor(moq) -dilar.
U bor(moq) -di.	

yetishtirib bermoq asos solmoq tarjima qilinmoq to'plamoq yaratmoq	vujudga keltirmoq o'girilmoq tayyorlamoq yig'moq tashkil qilmoq
--	---

3. Berilgan so'z va so'z birikmalarining sinonim juftini toptiring va yozdiring.

yetishtirib bermoq – tayyorlamoq

asos solmoq – tashkil qilmoq

tarjima qilinmoq – o'girilmoq

to'plamoq – yig'moq

yaratmoq – vujudga keltirmoq

**MAVZU** **Renessans**

**1 O'qing.**




**Uyg'onish davri (Renessans)** – dastlab Italiyadagi madaniy-ma'rifiy yuksalishga nisbatan o'qilgan, uni o'rta asrdan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholashgan. Renessansning asosiy alomatlari, tafakkurda va imda jaholatni yoritib o'tib, insonning iste'dodi va hurfiyligini yuzaga chiqarish, inson erki uchun kurashish bo'lgan.

Bu davrda Italiyada shoirlar – Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkir Bokkachcholar Renessans g'oyalari bilan ijodkorlikni davlatdoshlik bilan bog'laydigan. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspirilar Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdi.

Ammo Renessans faqat Yevropa hududida emas. Dunyo madaniyatini o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, Osiyoda Italiyaga nisbatan bir necha asr oldin ulkan madaniy yuksalish yuzaga kelgan. Ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ularda insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. Shartli ravishda Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy olimlar va mashhur mutafakkirlar yetishtirib chiqardi. Bu davrda Osiyoda Farg'oniy, Forobiy, Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Rumi, Navoiylar ijod qilishgan.

Sharqda ham, G'arbda ham Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotining muhim davri bo'lgan. Bu davr ijodkorlarining ilmiy va adabiy asarlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

**2 Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Daho deganda qanday inson ko'z olingizga keladi?
2. Qadimda ham olimlar tarjima bilan shug'ullanishganmi?
3. Uyg'onish davri olimlari ilmiy ma'lumotlarni qaysi manbalardan olgan deb o'ylaysiz?
4. Siz bugungi kunda ilmiy tadqiqot uchun qaysi mamlakatga borgan bo'lardingiz?

**3**

Men	-m	Siz	-k
Sen	bormoq + di -ng	Siz	bormoq + di -ngiz
U	-	Ular	-lar

#### 4. Berilgan terminlarning izohini toptiring va yozdiring.

No	Tushuncha	Tahlil
1.	Alloma	Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug'ullanuvchi olim, mutaxassis.
2.	Mutafakkir	Ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs, olim.
3.	Faylasuf	Fikr yurituvchi, chuqur falsafiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi
4.	Kashfiyotchi	Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.

5. Berilgan matn elektron dastur orqali ikki marotaba eshittiriladi yoki o'qituvchi kitobidan o'qib beriladi.

Al-Farg'oniylar Farg'ona vodiysining Quva qishlog'ida tug'ilgan. Bo'lajak olim 15 yoshida matematika va astronomiyani o'rganish uchun Bag'dodga yo'l oladi. U yerda yunon olimlarining asarlarini tarjimasiz o'qish uchun yunon tilini o'rganadi.

Ahmad al-Farg'oniylarning 8 ta asari ma'lum. Bu kitoblarning har birida astronomiyaga oid yangi, qimmatli fikrlar aytilgan. Ularning ayniqsa ikkitasi jahon astronomlariga ma'lum va mashhurdir. Biri – "Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi". Ushbu asar "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" nomi bilan ham ma'lum bo'lib, 1145- va 1175-yillarda Yevropada lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. Shundan so'ng al-Farg'oniylar nomi lotincha lashtirilib, "Alfraganus" shaklida G'arbda shuhrat topgan.

Olimning "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" asaridan Yevropa universitetlarida bir necha asrlar davomida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob o'sha zamondagi astronomiya bo'yicha eng muhim va zarur bilimlarni o'z ichiga olgan. Uning geografiyaga oid bo'limi Yer yuzidagi mamlakat va shaharlar haqida eng boshlang'ich va zaruriy bilimlarga bag'ishlangan bo'lib, "Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida" deb atalgan.

1. Al-Farg'oniylar Samarqandda tug'ildi. **Noto'g'ri**



#### 3 O'ylang va toping. Yozing.

**Namuna.** VIII asr oxiri - IX asr boshida Bag'dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari: Afiotun, Arastu, Suqrot, Hippokrat, Galen, Yevklid asarlari arab tiliga (tarjima qilindi) o'g'irildi.

yetishtirib bermoq	vujudga keltirmoq
asos solmoq	o'g'irilmoq
tarjima qilmoq	tayyorlamoq
to'plamoq	yig'imoq
yaratmoq	tashkil qilmoq



#### 4 O'ylang va toping. Yozing.

**Namuna.** Kashfiyotchi - yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.

N <sup>o</sup>	Tushuncha	Izoh
1	Alloma	Fikr yurituvchi, chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi.
2	Mutafakkir	Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.
3	Faylasuf	Ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs, olim.
4	Kashfiyotchi	Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug'ullanuvchi olim, mutaxassis.



#### 5 Tinglang. Yozing. ✓✗

- Al-Farg'oniylar Samarqandda tug'ildi.
- U yunon olimlarining asarlarini o'qish uchun yunon tilini o'rgandi.
- Al-Farg'oniylarning asarlari lotin va ibroniy (ivrit) tillariga tarjima qilingan.
- Olimning "Astronomiya asoslari haqidagi kitob"idan Yevropa universitetlarida matematika fani bo'yicha darslik sifatida foydalanilgan.
- "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" asarida geografiyaga oid bo'lim ham bor.

#### Mustaqil topshiriq

"Al-Xorazmiylar va algebra" mavzusida ma'lumot to'plab, ulardan matn tuzing. Matn kamida 50 ta so'zdan iborat bo'lsin.



2. U yunon olimlarining asarlarini o'qish uchun yunon tilini o'rgandi. **To'g'ri**
  3. Al-Farg'oniyning asarlari lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. **To'g'ri**
  4. Olimning "Astronomiya asoslari haqida kitob"i Yevropa universitetlarida matematika fani bo'yicha darslik sifatida foydalanilgan. **Noto'g'ri**
59. "Astronomiya asoslari haqida kitob" asarida geografiyaga oid bo'lim ham bor. **To'g'ri**

**Mustaqil topshiriq.** "Al-Xorazmiy va algebra" mavzusida ma'lumotlar to'plab, ulardan matn tuzing. Matn kamida 50 ta so'zdan iborat bo'lsin.

## SHARQ BOZORLARI

**Maqsad:** o'tgan zamon fe'llarini faol nutqiy ko'nikmada ishlata olish, mavzuga oid faktologik matnlarni o'qiganda, tinglaganda ularni tushunish, qayta so'zlab, tushuntirib bera olish, matn va ma'lumotlar asosida savollarga javob bera olish.

**Refleksiya:** o'tgan zamon fe'li haqida suhbat o'tkaziladi, o'quvchilar Sharq bozorlari haqida, ular to'g'risida topgan faktlari haqida so'zlab berishlari, bunda imkon qadar o'tgan zamon fe'llarini qo'llashlari kutiladi.

### Vazifalar:

1. Berilgan mavzu matnini o'qitish va shu asosida gapirtiring.
2. Yuqoridagi matn asosida o'quvchilar bilan savol-javob tashkil qiling.
3. Ekobozor, Maishiy texnika do'koni, Supermarket – berilgan ushbu terminlar izohini o'quvchilardan so'rang va yozdiring. Shular asosida suhbatlashing.

MAIY U

### Sharq bozorlari



1 O'qing va o'ylang. Gapiring.



Sharq mamlakatlari xalqlari, xususan, bizning yurtdoshlarimiz hayotida bozorlar muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning har bir shahri, har bir tumanining o'z bozori bor. Agrim hududlarida hatto o'nlab bozorlar bo'lib, ularda savdo-sotiq, sayr-u sayohatning ko'p asrlik madaniyati shakllanganiki, bu ham milliy qadriyatning bir ko'rinishi hisoblanadi.

#### Katta bozor (Istanbul)

Bu bozor nafaqat Turkiyada, balki dunyodagi eng yirik bozor nomiga da'vogarlik qilishi mumkin. 30 ming kvadrat metr maydonda joylashgan 4 mingdan ortiq do'konlarda haqiqatan ham savdo qaynaydi. Bu bozorni bemalol muazzam shaharning osori atiqalaridan biri deb atasa bo'ladi. Sababi bu bozorga agrim kunlari 500 mingdan ortiq kishi tashrif buyuradi, bir yilda tashrif buyuruvchilar soni 90–100 mln kishini tashkil qiladi.

Maishiy buyumlar, shirinliklar, kiyimlar – xayolga kelgan va kelmagan hamma narsani xarid qilish mumkin bo'lgan bu bozor shaharning 60 dan ortiq ko'chalari bo'ylab kengayib, cho'zilib ketgan. Qadam-baqadam yiriklashib borishi tufayli uning ichida favvoralar, mehmonxonalar, uylar, restoranlar, masjidlar va hatto qabriston ham bor.



O'tgan zamon fe'lining **-gan** shakli haqida o'quvchilarga ma'lumot bering.  
**Diqqat qiling!**

Men	-man	Biz	-miz
Sen sotib ol(moq) (-gan)	-san	Siz sotib ol(moq) (-gan)	-siz
U	-	Ular	-lar

4. Berilgan gaplarni kerakli qo'shimchalar bilan tiklating.

1	Chorsu bozorlari atrofida tuya karvonlari uchun joylar bo'l...		-gan
2	Qadimda yurtimizda tungi bozorlar bo'l... va ular "Bozori shab" deyil...		-gan
3	Biz bugun oilaviy xaridlar uchun supermarketga tashrif buyur...	-dik	
4	Sharq bozorlari atrofida karvonsaroy, novvoyxona va oshxonalar muntazam ishlab tur...		-gan
5	Yaqinda bizning ko'chamizda "Ekobozor" ochil...	-di	
6	Bozorlar zamonaviy savdo majmualari oldida o'z ahamiyatini yo'qotma...	-di	

5. Tarkibi o'zgargan harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlar hosil qildiring.

- 1) avrokn - karvon
- 2) aybida - adabiy
- 3) anmazar - manzara
- 4) avdtal - davlat
- 5) ichroily – chiroyli

6. Berilgan matn elektron dastur orqali ikki marotaba eshittirildi yoki o'qituvchi kitobidan o'qib beriladi.

Toshkent Buyuk ipak yo'lida joylashgan O'rta Osiyoning qadimiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan. Shahar muhim geografik nuqtada – Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq yo'lida joylashganligi sababli bu yerga har yili yuzlab savdo karvonlari kelib turgan.

Toshkentni istilo qilishda qatnashgan rus rassomi V. Vereshchaginining yozishicha, «Men ko'rgan Sharq shaharlarining hech birini kengligi jihatidan tosh-

#### Marokash bozori (Marokash)

Marokashdagi Marokash bozorida haqiqiy Sharq ertaklaridagi muhitni his qilish mumkin. Go'yoki asrlar bu bozorni chetlab o'tgandek, kelajak ham tarixni, albatta, kutib oladigandek tasavvur uyg'onadi. Marokashga kelgan sayyoh bu bozorni aylanmay qaytmaydi. Ayniqsa, bozor o'zining xushbo'y ziravorlari bilan nom qozongan va butun rastalar bo'ylab ularning ifori aylanib yuradi. Shuningdek, bo'taloq junidan tayyorlangan nafis matoli liboslar bozor ramziga aylangan.



#### Pekin oziq-ovqat bozori (Xitoy)

Dunyoning eng yirik bozori nomiga bemaol da'vogar bo'ladigan, rasmiy nomi juda uzun – "Pekin Sinfaci qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulgurji bozori" bo'lgan bu savdo majmuasi oz emas, ko'p emas, 548 gektar maydonni egallagan. Pekindek ulkan shaharning oziq-ovqatga bo'lgan talabining 70 foizidan ortig'ini qondiruvchi bu maskanda tun-u kun savdo tinmaydi.



#### Savollarga javob bering. Yozing.

1. Nima Marokash bozorining ramziga aylangan?
2. Marokash bozorida nimaning iforini sezish mumkin?
3. 30 ming kvadrat metr maydonga ega dunyoning eng yirik bozori qayerda joylashgan?
4. Istanbuldagi eng yirik bozorda uylar, mehmonxonalar, restoranlar bilan bir qatorda noodatli qanday joy bor?
5. Nomi eng uzun oziq-ovqat bozori qayerda joylashgan?



#### O'ylang va toping. Gapiring.

##### Zamonaviy bozorlar



Supermarket



Maishiy texnika do'koni



Ekobozor

**vab-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

*Zokirjon.com vab-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

**10-sinf O'zbek tili darsligini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud***

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Darsliklarning elektron varianti**
- 9. Maktab ish hujjatlari**
- 10. Direktor ish hujjatlari**
- 11. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 12. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 13. Psixolog hujjatlari**
- 14. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 15. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 16. Besh tashabbus hujjatlari**
- 17. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**